

## MAQOL VA MATALLARNING TARIXIY KELIB CHIQISHI VA LINGVOKULTUROLOGIK AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11002245>

**Pulatova Dilafruz Toxirjonovna**

*Andijon Davlat Chet tillari Instituti*

*Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti*

*kafedrasi o'qituvchisi*

*e-mail: [dilafruzpulatova0913@gmail.com](mailto:dilafruzpulatova0913@gmail.com)*

### **Annotatsiya**

*ushbu maqolada maqol va matallarning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida so'z boradi. Shuningdek, maqol va matallar xalq madaniyatini aks ettirishi maqollar misolida tahlil qilingan.*

### **Kalit so'zlar**

*maqol, matal, madaniyat, xalq, qiyoslash, janr*

### **Annotation**

*this article talks about the development of proverbs and sayings. Also, the fact that proverbs reflect the culture of the people is analyzed on the example of proverbs.*

### **Keywords**

*proverb, sayings, culture, people, comparison, genre*

Biz og'zaki so'zlashuvimizda juda ko'p marotaba maqol va matallarga murojaat etamiz. Maqol-xalq og'zaki ijodi janri bo'lib, u qisqa va lo'nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli iboradir. Matal esa muayyan hayotiy hodisani aniq va to'g'ri belgilab beradigan obrazli ifoda hisoblanadi. Matallar maqollardan farqli ravishda ibratli maslahat tariqasidagi umumlashtiruvchi ma'nodan holi bo'ladi. Ular ba'zi o'xshashliklarga ega bo'lsada, lekin o'ziga xos jihatlari bilan bir biridan farqlanib turadi.

Maqol va matallarni o'rganilish tarixi uzoq davrlarga taqaladi. Ilk maqollar qadim zamonlarda paydo bo'lgan. « Maqollarning paydo bo'lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko'pchiligi insonlar orasida ishlab chiqarish munosabatlari, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqoldan farqli o'laroq, matal-nutqda emotsional baho uchun mavjud bo'lgan va bir qator o'xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik

tamoyiliga ko'ra qo'llanuvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustaxkamlanayotgan bo'lsa, matal bir tugal fikr, xulosa ichiga to'laqonli bir bo'lak sifatida kiritiladi »<sup>53</sup>.

XI asrning buyuk olimlaridan biri Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida turk oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Demak, o'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganish XI asrda Mahmud Koshg'ariy tomonidan boshlab berilgan. Uning «Devonu lug'otit turk» asarida 275 ta maqol keltirib o'tilgan. Olimlar qadimgi shoxlardan Abbos Safoviyning amri bilan maqol va matallarimiz bir joyga jamlangani haqida ma'lumot beradilar. Maqol va matallarga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Abdulla Qodiriy va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligini ko'rish mumkin. Xalq madaniyatini ko'rsatishda maqol va matallar eng faol vositalardan biri bo'lib, bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda.

Xalq maqol va matallari ularni yaratgan xalq madaniyatini va merosini aks ettirgani bilan ayniqsa mazmunlidir. Ularni hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqol va matallar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashi, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir. Dunyodagi hamma xalqlarining tillarida ham do'stlik, birodarlik, hamjihatlik to'g'risida juda ko'p maqollarni uchratamiz. O'zbek xalq maqollarida esa oila, vatanga sadoqat, rostgo'ylik kabi sifatlar olg'a surilgan maqollar ko'p. Bundan shuni anglash mumkinki, o'zbek xalqi azaldan ushbu g'oyalarga qattiq e'tibor berib borgan va avlodlarga ham meros qilib qoldirgan. O'z oilasini qadrlash, uni birligini saqlay olish, farzandlar tarbiyasiga e'tibor berishdek vazifalarni biz ota-bobolarimizdan o'rganib, hamon davom ettirmoqdamiz. Maqollarning muhim jihatlaridan asosiysi ulardagi ibratlilikdir. Maqollarda har doim ibratli fikr aytiladi. Lekin har qanday ibratli fikr maqol bo'lavermasligini sabablari talaygina. Maqol va matallarda ifodalangan fikr alohida

<sup>53</sup> Аникин В. Круглов А., Русское народное поэтическое творчество. – Л.: 1983, -С.129.

shaxsga emas, balki umuminsoniy xarakter kasb etishi, mukammal badiiy shaklga ega bo'lishi shartdir. Maqollardagi pand-nasihat xarakteri ularni yanada jonli va kuchli tasirchanligini oshiradi.

Agar maqol va matallarni ma'no mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ularda aks etgan lingvokulturologik hususiyatlarni anglash qiyin emas. Masalan : «Katta arava qayoqdan yursa, kichik arava ham o'sha yoqdan yuradi»<sup>54</sup>-bu maqolda juda katta ma'no mujassam bo'lib, bu maqol orqali ota-bobolarimiz kelajak avlod haqida qayg'urgani, ularga o'rnak bo'lish lozimligi haqida tushuntirib ketganlar. Maqoldagi «katta arava» bu ota-ona, yoshi ulug'lar ma'nosini ifodalasa, «kichik arava» esa farzand, yosh avlodni ifodalaydi. Bu maqolga o'xshash ma'noli maqollar talaygina. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, o'zbek madaniyatida ota-onaga, o'zidan yoshi kattalarga hurmat shuningdek, farzandlarini va yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash qadim zamonlardan beri davom etib kelmoqda. Agar oila boshliqlari mehnatsevar, rostgo'y, vatanparvar bo'lsa, farzandlari ham ulardan o'rnak olib shu yo'ldan ketadilar. Oila esa jamiyatning asosiy qismi bo'lib, u yurt tinchligi, farovonligi va ravnaqi asosidir. Yurtning taraqqiyotini oilaga bog'liqligini isboti sifatida ushbu maqol hamon tilimizda faol tarzda qo'llanilmoqda. Yana bir maqolni tahlil qilsak, «Ilmsiz bir yashar, ilmi ming yashar»<sup>55</sup>. Bu maqoldan ham shunu anglash mumkinki, ilm olish bilan umr o'tkazgan inson o'lmasligi, yillar, asrlar davomida u haqida gapirilishi o'rnak qilib ko'rsatilishi, ilmsiz inson esa faqat o'zi uchun berilgan umrnigina yashab, so'ng nom nishonsiz yo'qolib ketishini tushunish mumkin. Bu maqol orqali xalqimizda ilm olishni keng targ'ib qilinganligi, uning naqadar muhimligi qisqa va lo'nda tarzda ushbu maqol orqali yetkazilgan. Ajdodlarimizni ilm olishga bo'lgan layoqati, iqtidori, qiziqishi orqali juda ko'p olimu-mutafakkirlarni yetishib chiqqanligi va ularni butun dunyoga mashxurligi sir emas. Ularning asarlarini xozirgi zamongacha ulug'lanib yetib kelishini ham tom ma'noda ming yil yashash desak adashmaymiz. O'zining yuksak ilmi orqali haligacha ta'lim-tarbiyada o'rnini yo'qotmagan shaxslardan Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Buxoriy, Amir Temur va Zahiriddin Bobur kabi ilm ma'rifat egalari hamon yashamoqda. Ushbu maqolning naqadar haqiqatga to'g'ri kelishi, hayotiyliги bilan hozirgi davrda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Matallarga kelsak, ularni tahlil qilish maqollarga nisbatan osonroq. Matallarda o'xshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi o'rtasida yaqinlik, mantiqiy bog'lanish bo'ladi. Chunki uning ma'nosini so'zlarning o'zini ma'nosidan

<sup>54</sup> Turdimov Sh., O'zbek xalq maqollari.-T.,2005, 156-bet

<sup>55</sup> Suvonqulova H., O'zbek xalq maqollari.-T.,2014, 86-bet

kelib chiqib tushunish mumkin. Ulardagi ma'no butunlay boshqa narsaga ko'chmagan. Masalan: "Tuyaning dumi yerga tekkanda"- hech qachon amalga oshmaydigan ish ma'nosida kelib, buning isbotini hayotda ham ko'rish mumkin. Bizga ma'lumki tuyaning dumi kalta bo'lib, u hech qachon yerga tegar darajada bo'lib o'smaydi. Bundan shuni tushunish mumkinki, bu ish tuyaning dumi yerga tegmaganidek-amalga oshmaydigan ishdir."Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin"- har bir ishni o'z ustasi qilishi lozimligi ma'nosida, "Xamirdan qil sug'urganday" - oson bitgan ish ma'nosidagi, kabi idiomalarni tushunish qiyin emas.

Matallar qadimgi urf-odatlar orqali, hatto qbilachilik davridagi urf-odatlar orqali ham paydo bo'lgan. Bunday iboralar dastlabki yaratilgan vaqtida ma'juziy ma'noga ega bo'lmagan, keyinchalik ma'juziy ma'noni, ko'chma ma'noni kasb qilgan. "Popugi pasayib qoldi" iborasining yaratilishi tarixi quyidagicha: podshoxlar, xonlar, amirlar hukmronligi davrlarida bir shaxs yangi amalga tayin qilinarkan, uning bosh kiyimiga mansabiga qarab qush patidan qilingan jig'a-popuk sanchar edilar. Katta mansabdorlar qimmatbaxo oqqush qushining patidan qilingan jig'a-popukni, kichikroq mansabdorlar esa pastroq, ukking patidan qilingan kalta jig'a-popukni bosh kiyimlariga sanchib yurar edilar. Yuqori mansabdorlar o'z amalidan olinib, pastroq amalga qo'yilsa, uning bosh kiyimidai jig'a-popugi ham kaltaroq patdan bo'lar edi. Buni ko'rgan kishilar o'zaro amaldorlarning "popugi pasayib qolibdi-ku"- der edilar. Bu ibora hozirgi vaqtda tilimizda ma'juziy ma'noda qo'llanib kelinmoqda. Maqol va matallar zamonlar osha tobora sayqallanadi, mazmuni teranlashadi. Xalqimiz orasida qo'llanilayotgan va yozma adabiyotda, kinofilmlar, teatr tomoshalarida, matbuot, radio va televideniya qo'llanilayotgan maqol va matallarni hikmat durdonasini hamon muhim ahamiyat kasb etayotganiga yaqqol misol deb aytishimiz mumkin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qilmoqda. Nutq madaniyati, muomala, muloqot odobi, tinglash, sukut, vatanga muhabbat, farzand tarbiyasi kabi keng tarbiyaga undovchi maqol va matallardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Turdimov Sh., O'zbek xalq maqollari.-Toshkent «Sharq »,2005
2. Suvonqulova H., O'zbek xalq maqollari.- Toshkent «Adabiyot uchqunlari »,2014

3. Jo'rayev K., «Tarjima san'ati» Toshkent, 1983

#### INTERNET SAYTLARI :

1. Google.uz
2. Wikipediya.uz
3. Ziyonet.uz